

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**



Ro'yxatga olindi:
№ BD -511200-3-02
2014 - yil "2" 06

O'ZBEK TILINI O'QITISH METODIKASI

FANI DASTURI

Bilim sohasi: 100 000 – Gumanitar
Ta'lim sohasi: 110 000 – Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi: 5111200 – O'zbek tili va adabiyoti

Toshkent – 2014

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 20 17 -yil "28" 06 -dagi "437" -sonli buyrug'ining 1 -ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2017 -yil "28" 06 -dagi "3" -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

M.Saparniyazova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili adabiyoti universiteti O'zbek tilini o'qitish metodikasi kafedra dotsenti, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

T.Yusupova

– Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tilini o'qitish metodikasi" kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

Sh.Yusupova – Andijon davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori

B.Bahriddinova – ToshDO'TAU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Fanning o'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2017 -yil "24" 04 -dagi "8a" -sonli bayonnoma).

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi orni

Ushbu fan ta'lim bosqichlarida olib boriladigan dars turlari, ona tilini o'qitishning turli zamonaviy metod va usullardan foydalanish jarayoni, o'quvchilarga ona tilidan bilim va malaka berish yo'llari, ona tili ta'limining asosiy vazifasi bo'lgan o'quvchilarning fikrlash salohiyatini, aqliy rivojlanishini, mantiqiy tafakkurini o'stirish, o'zini, o'zgalarni va birligi til vositasida anglashni hamda fikr va his-tuyg'ularini ona tilining keng imkoniyatlari doirasida bayon eta olishga o'rgatish jarayonlarining mohiyatini tushunishda talabalarni zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantiradi.

"O'zbek tilini o'qitish metodikasi" fani umumkasbiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 2- va 3-kurslarda o'qitilishi maqsadga muvofiq. Mazkur fan pedagogikaning xususiy didaktik siklidagi fanlardan biri bo'lib, tilshunoslik fanlari hamda ona tili ta'limi jarayonlari bilan bog'liqdir va "Nima o'qitiladi?", "Qanday o'qitiladi?", "Qanday tashkiliy shakllar vositasida o'qitiladi?" degan savollarga javob izlaydi. "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" fani o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi bo'yicha yetuk kadrlar tayyorlash, tilshunoslik yo'nalishidagi ilmiy-metodik tadqiqotlar, ta'lim tizimida ona tilini o'qitishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifalari

"O'zbek tilini o'qitish metodikasi" fanini o'qitishdan maqsad – ona tili ta'limining ilmiy – nazariy asoslarini, o'qitishning eng qulay va zamonaviy metodlarini ta'limning turli bosqichlarida qo'llay olishni, bo'lajak o'quvchilarga qo'yiladigan kasbiy talablar asosida ona tili fanini zamon talablari darajasida o'qitishning samarali metodlari, shakl va usullarini o'rgatish, ularni amaliyotga tatbiq qilishning pedagogik-metodik imkoniyatlarini yoritishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni zaruriy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish, ularda kasbiy-pedagogik hamda metodik ko'nikma va malakalarni shakllantirish, mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati, o'qituvchilik kasbiy madaniyatini kamol toptirishga o'rgatish vazifalarini bajaradi.

Talaba:

- filologik bilim asoslari, ona tili ta'limi jarayoni, uning obyekt va subyekt;
- ona tili fanining ta'lim tizimida tutgan o'rni;
- ona tilining har bir sathi doirasida o'quvchilarga beriladigan BKMlar majmuasi *to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi*;
- o'zbek tili va adabiyot o'qituvchisining innovatsion pedagogik faoliyatining nazariy-metodik asoslari, pedagogik faoliyatini amalga oshirish metodikasi;
- o'zbek tilini o'qitish metodlari, usullari, ularning nazariy asoslari;

- o'zbek tili fani bo'yicha o'quvchilarni mustaqil tashkil olishga yo'llash;
- o'zbek tili fani bo'yicha o'quvchilar bilimini baholay olish;
- o'zbek tili darslari bo'yicha talab qilingan barcha me'yoriy hujjatlarni yuritish;
- o'zbek tili darslarini loyihalashtirish va tashkil etish;
- ta'lim tizimida fanning mazmuni, uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan metod va usullar asosida o'qitish samaradorligini oshirish, ta'lim jarayonini tashkillashtirishning ilmiy-metodik asoslari, o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisining pedagogik faoliyatini, o'quv mashg'ulotlarini, kasbga yo'naltirib muammoli o'qitishni *bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi*;

- umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'zbek tili ta'limi mazmuni, bu fanlarni o'qitishda uning qismlari, boblariga xos xususiyatlarini tahlil qila olish;
- o'zbek tili ta'limida an'anaviy va no'an'anaviy dars shakllarini qo'llash, o'quvchilar o'quv-biluv faoliyatini faollashtirishga qaratilgan dars usullaridan foydalanish;

- o'zbek tili fanlarini kasbga yo'naltirib o'qitishni loyihalashtirish; innovatsion pedagogik muhitni tashkil etish vositalari bilan ishlash;

- o'quv ishlarini loyihalashtirish;

- darsdan tashqari mashg'ulotlarni aniq va maqsadli tashkil eta olish;

- o'z shaxsiy va kasbiy axborot maydonini loyihalashtirish *ko'nikmalariga ega bo'lishi tozimi*.

III. Asosiy nazariy qism

1-modul. O'zbek tilini o'qitishning umumiy asoslari

1-mavzu. Ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning qonun hujjatlari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ta'lim va tarbiya jarayonlarining asosiy qonun hujjati sifatida. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. "Davlat tili to'g'risida"gi qonun. "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonun. Ona tilini o'qitish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi "PF-4797-sonli farmonining mazmun mohiyati va uning ona tili ta'limi oldiga qo'ygan vazifalari xususida.

2-mavzu. O'zbek tili o'qitish metodikasining umumiy masalalari

"O'zbek tilini o'qitish metodikasi" fanining maqsad va vazifalari. O'zbek tilini o'qitish metodikasi fanining tarixiy shakllanishi, rivojlanishi va hozirgi ahvoli.

O'zbek tili o'qitish metodikasining tekshirish (ilmiy-tadqiqot) metodlari. O'zbek tilini o'qitish metodikasi fanining boshqa fanlar (falsafa, tilshunoslik siklidagi fanlar,

pedagogika, psixologiya, adabiyot, mantiq va b.) bilan aloqadorligi. Ona tilining umumiy ta'lim tizimida tutgan o'rni va ahamiyati. Ona tili o'qituvchisi va unga qo'yiladigan kasbiy talablar.

3-mavzu. O'zbek tilini o'qitishga doir yondashuv va tamoyillar

Ona tili ta'limidagi muammolar. Ona tilini o'qitishga doir yondashuvlar. Ona tili o'qitishning umumdidaktik va o'ziga xos tamoyillari. Ilmiylik, tizimlilik va izchillik tamoyili. Nazariya va amaliyot birligi tamoyili. Bilim, ko'nikma va malaka tamoyillari. O'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish tamoyillari. Kommunikativ kompetensiya. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi. Shaxs sifatida o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi. Umummadaniy kompetensiya.

II modul. O'zbek tilini o'qitishning xususiy asoslari

1-mavzu. O'zbek tilini o'qitish metodlari

Metod haqida umumiy tushuncha. Metod va usul tushunchalarining o'zaro munosabati. O'zbek tilini o'qitish metodlari tasnifi. Muammoli ta'lim metodlari. Til ta'limida o'quvchi va o'qituvchi munosabatlari. O'quv jarayonini faollashtirish usullari. O'quv jarayonini faollashtirish mezonlari: natijaviylik, samaradorlik, motivatsiya. O'quv materiallarini o'zlashtirishning psixofiziologik omillari.

2-mavzu. Til ta'limi turlari

Ona tilidan dasturlashtirilgan ta'lim. Modulli ta'lim. Masofali ta'lim. Eksternat ta'lim. An'anaviy va no'an'anaviy darslar.

3-mavzu. O'zbek tili darslarining tiplari

O'zbek (ona) tili darslarining maqsad va tuzilishiga ko'ra tasnifi: takrorlash darslari, ta'limiy darslar; nazorat darslari. Ta'limiy darslarning tasnifi: yangi bilim berish darsi; ko'nikma va malakalarni shakllantirish darslari; o'rganilganlarni takrorlash darslari; xatolar ustida ishlash darslari. Nazorat darslarining tasnifi.

4-mavzu. O'zbek tili darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalar

Ta'lim texnologiyasining pedagogik va amaliy asosi. Ta'lim texnologiyasi asosida kafolatlangan natijaga erishish omillari. O'zbek tili darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalar.

5-mavzu. Ona tili ta'limida axborot - kommunikatsiya texnologiyalari.

O'zbek tili darslarida axborot texnologiyalari. Multimediya dasturlari. Taqdimot prezentatsion materiallarga qo'yiladigan didaktik talablar.

6-mavzu. Ona tili o'qitishda integrativ yondashuv.

Ona tili ta'limida integrativ yondashuv. Ona tili darslarini adabiyot bilan bog'lab o'rganish metodikasi. Ona tili darslarini tarix bilan bog'lab o'rganish usullari. Til ta'limi jarayonida pedagogik nazariyalar va psixologik bilimlardan foydalanish metodlari.

7-mavzu. Ona tili ta'limida rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi
Rivojlangan xorijiy davlatlar (Angliya, Germaniya, Koreya, Yaponiya) ta'lim tizimida ona tilini o'qitish tajribasi, metodlari va ulardan foydalanish.

III modul. Ona tili ta'limi vositalari

1-mavzu. Ona tili fani bo'yicha uzluksiz ta'limning Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari mazmuni

Ona tilidan uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti mazmuni. O'quv dasturining tarkibi va mazmuni. Ona tili ta'limi orqali o'quvchilarning tayanch, lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish usullari. Nutqiy kompetensiyalar: tinglab tushunish, o'qish, gapirish yozish. Lingvistik kompetensiyalar: fonetik, leksik, grammatik va ta'lim bosqichlari uzviylashtirilgan DTSda ularga qo'yiladigan minimum talablar. O'zbek tilidan til sathlarini o'rganishda o'quvchilarning og'zaki, yozma va bog'lanishli nutqini o'stirish bo'yicha umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari DTS, dastur va darsliklarining tarkibi va mazmuni.

2-mavzu. Chuqurlashtirilgan ona tili dasturlari

Chuqurlashtirilgan ona tili dasturlari mazmuni. Chuqurlashtirilgan dasturlar asosida ishlash usullari.

3-mavzu. Ona tili ta'limi vositalari.

Ona tili fanidan darsliklarining tarkibi va mazmuni, o'quv va metodik qo'llanmalar. Darslikka qo'yiladigan talablar. Umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili, akademik litsey hozirgi o'zbek adabiy tili, kasb-hunar kollejlari ona tili darsliklarining o'ziga xos xususiyatlari. O'quv va metodik qo'llanmalar haqida ma'lumot. Lug'atlar, qomuslar, axborot-malumot manbalari va ulardan foydalanish usullari.

4-mavzu. Ona tilini o'qitishda qo'shimcha materiallar bilan ishlash metodikasi

Orfografik, orfoepik, izohli, sinonimlar, antonimlar lug'atlaridan foydalanish usullari. Ilmiy, ommabop materiallardan foydalanish.

5-mavzu. Ona tili darslarida lingvistik mashqlar tizimi.

Lingvistik mashqlar tarkibi va tiplari. Lingvistik mashqlar tizimini ta'limga tatbiq etish. Mashq qilish jarayonini tashkil etish usullari.

6-mavzu. Ona tili darslarini loyihalashtirish

Yillik o'quv taqvimiy-mavzu rejalarini tuzish, shu asosda darslarga tayyorgarlik ko'rish va dars ishlamlarini tayyorlash. Dars taqvimini va texnologik xarita, unda o'qituvchi va o'quvchi faoliyati va dars jarayonining to'g'ri loyihalashtirilish usullari. Ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar. Dars konsepti o'qituvchining asosiy ish hujjati sifatida. Dars kuzatish va dars tahlili: metodologik tahlil, psixologik tahlil, pedagogik tahlil.

IV modul. Tilshunoslik bo'limlarini o'qitish metodikasi

1-mavzu. Fonetika bo'limini o'qitish nazariyasi va metodikasi

Tilshunoslik va uning asosiy bo'limlarini o'qitishning o'ziga xosligi. O'quvchilarda tilshunoslik bo'limlarining mazmuni haqidagi bilimlarni shakllantirish bosqichlari. Fonetika o'qitishning maqsadi va tamoyillari. Fonetikani o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, uning grafika, orfoepiya va orfografiya bo'limlari bilan uzviy bog'liqligi. Nutq tovushlarini o'qitish metodlari. Fonetik hodisalarning lingvometodik tahlili. Fonetika va grafika haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish usullari.

2-mavzu. Leksikologiya va frazeologiya bo'limlarini o'qitish metodikasi

Leksikologiya o'qitishning maqsad va vazifalari. Leksika, frazeologiya va leksikografiyaning nazariy masalalarini o'zlashtirish. So'zning leksik birlik sifatidagi mohiyati. So'zlarning shakl va ma'no munosabati va ular orqali o'quvchilar nutqini o'stirish omillari. Leksikologiya bo'limini o'qitishda o'qitishning muammoli dars shaklini qo'llash. Darsning jamoa, guruhli va individual shakllari. Leksik tahlil metodikasi. Lug'at va uning turlarini o'qitishning o'ziga xosligi. O'zbek tili lug'at tarkibi qatlamlari. Chegaralangan va chegaralanmagan qatlam. Zamonaviy qatlam. Eskirgan qatlam. Lug'at tarkibidan to'g'ri foydalanish omillari. Frazeologik birliklar o'quvchilar nutqini o'stiruvchi vosita sifatida. Frazeologiyani o'qitishning maqsad va vazifalari, metodlari. Frazeologizmlar lingvomadaniy birlik sifatida.

3-mavzu. Morfologiyani o'qitish metodikasi.

Morfologiya o'qitishning maqsad va vazifalari. Morfologiyani o'qitish metodikasi. So'zlarning grammatik va lug'aviy ma'nolari, ma'no guruhlari, so'z tarkibi ustida ishlash usullari. Mustaqil so'zlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari. Fe'l, ot, sifat, son, olmosh va ravish so'z turkumlarini zamonaviy vositalar asosida o'qitishni loyihalashtirish. So'z turkumlarini tahlil qilish usullari. Yordamchi so'z

turkumlari (bog'lovchi, ko'makchi va yuklama) va alohida so'z turkumlari (modal, undov va taqlid)ni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini o'zlashtirishda qo'llaniladigan metod va usullar. Morfologik tahlil metodikasi.

4-mavzu. Sintaksis bo'limini o'qitish metodikasi

Sintaksis bo'limini o'qitishning maqsad va vazifalari. Bu bo'limning boshqa bo'limlar bilan aloqadorligi. So'z birikmasini o'qitish metodikasi. So'z birikmalari tahliliida interfaol usullardan foydalanishning samaradorligi. Sodda gap sintaksisini o'qitish metodikasi. Gap, gapning asosiy belgilari, ifoda maqsadi va tuzilishiga ko'ra turlarini o'qitishda o'qitishning muammoli ta'lim shaklini qo'llash. Darsning jamoa, guruhli va individual shakllari. Sodda gap tahlilini o'tkazish metodikasi. Qo'shma gap sintaksisini o'qitish metodikasi. Qo'shma gapning nazariy masalalarini o'zlashtirish usullari. Qo'shma gapga doir mashqlar ustida ishlash. Qo'shma gap tahlilini o'tkazish metodikasi.

5-mavzu. Punktatsiya o'qitish metodikasi

Punktatsiya o'qitishning o'ziga xosligi. Punktatsion xatolarning tiplari. Tinish belgilarining qo'llanishi ustida ishlash usullari.

6-mavzu. Nutq usublari ustida iashlash metodikasi

So'zlashuv uslubining o'ziga xos jihatlari. Adabiy so'zlashuv uslubining o'qituvchi-o'quvchi muloqotida qat'iy amal qilinishi. Publisistik, ilmiy, rasmiy va badiiy usublarning o'ziga xos xususiyatlari ustida iashlash metodikasi. Til sathlarini o'rganishda o'quvchilarning og'zaki, yozma va bog'lanishli nutqini o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari. Til sathlarini o'rganishda og'zaki, yozma va bog'lanishli nutqni o'stirish usullari.

7-mavzu. Ona tili darslari bo'yicha nazorat shakllari va uni tashkil etish usullari

Ona tilidan test texnologiyalari. Ochiq va yopiq testlar. Produktiv va reproduktiv testlar.

8-mavzu. Darsdan tashqari ishlarni tashkil qilish metodikasi

Darsdan tashqari ishlarning mazmun-mohiyatiga ko'ra turlari: 1) fakultativ; 2) sinfdan tashqari ishlar; 3) til to'garaklari; 4) ko'rik-tanlovlar; 5) til bayramlari; 6) fan olimpiadalari; 7) maktab, AL va KHK devoriy gazetalar; 8) konferensiyalar. Darsdan tashqari ishlarning til ta'limida tutgan o'rni. Ona tili o'quv xonasini jihozlash.

IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Talabalar darslarni, alohida mashg'ulotlarni tashkil qilishda foydalaniladigan didaktik materiallarni tayyorlash, ularni rejalashtirish hamda bevosita amaliyotda qo'llash bo'yicha amaliy topshiriqlarni bajarishadi, ta'lim bosqichlari ona tili dastur va darsliklarini chuqur o'rganadilar, ulardagi har bir nazariy qoida va amaliy mashg'ulotlarda "O'zbek tilini o'qitish tahlil qiladilar. Shuningdek, amaliy mashg'ulotlarda "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" fanidan mavjud darslik va o'quv qo'llanmalari, metodist olimlarning monografiya, qo'llanma, maqolalarini konspektlashtirish, ular asosida dars ishlanmalarini yaratish, shuningdek, metodik jurnallardagi yangi ilmiy maqolalarga annotatsiya yozish yo'llari bilan tanishadilar.

Amaliy mashg'ulotlarda ta'limning turli bosqichlarida tashkil etiladigan dars turlari uchun ko'rgazmali materiallar, jadval va tarqatma materiallarning eskizlarini tayyorlash ishlari amalga oshiriladi.

Tavsiya qilinadigan amaliy mashg'ulot mavzulari:

1. Ona tili o'qitishning me'yoriy-huquqiy asoslari.
2. Ona tili o'qitishning umumdidaktik va o'ziga xos tamoyillari.
3. Ona tili o'qitish metodlari.
4. Ona tili darslari tiplari.
5. Ona tilidan o'quv ishlarni tashkil etish va uni o'tkazish shakllari.
6. Ona tili ta'limi vositalari.
7. Ona tilidan uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturining tarkibi va mazmuni.
8. Ona tili darsliklari va qo'llanmalar bilan ishlash.
9. Ona tilidan qo'shimcha materiallar bilan ishlash.
10. Yozma nutq metodikasi.
11. Og'zaki nutq metodikasi.
12. Mashqlar ustida ishlash metodlari.
13. Ona tili darslarida ko'rgazmalilik.
14. Ona tili darslarida axborot texnologiyalardan foydalanish.
15. Ona tili ta'limida integrativ yondashuv.
16. Ona tili ta'limida rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi
17. Rivojlangan xorijiy davlatlar ta'lim tizimida ona tili o'qitish tajribasi.
18. Ona tilidan mustaqil ishlarni tashkil etish.
19. Ona tili darslarini rejalashtirish.
20. Fonetika va fonologiya o'qitish metodikasi.

21. Leksikologiya o'qitish metodikasi.
22. Morfemika va so'z yasashini o'qitish metodikasi.
23. Morfologiya o'qitish metodikasi.
24. Sodda gap sintaksisi o'qitish metodikasi.
25. Qo'shma gap sintaksisi o'qitish metodikasi.
26. Punktatsiya o'qitish metodikasi.
27. Ona tilidan o'quvchilar bilimni tekshirish usullari. Test texnologiyalari.
28. Darsdan tashqari ishlarni tashkil qilish metodikasi ustida ishlash
29. Ona tili o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligini oshirish.
30. Ona tili darslarini loyihalashtirish.
31. Namunaviy dars ishlamasi va uning tuzilishi.
32. Dars kuzatish va tahlil qilish.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talaba mustaqil ta'limda o'zbek tilini o'qitish metodikasi fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanishi tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalari bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha o'zbek tilini o'qitish metodikasi fani bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'lim mavzulari:

1. O'zbek tilini o'qitish metodikasi va texnologiyalari fani bo'yicha adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish.
2. O'zbek tilidan darslik va o'quv qo'llanmalarining boblari va mavzularini o'rganish.
3. O'zbek tilidan tarqatma materiallar tayyorlash. (Bo'limlar bo'yicha)
4. O'qitish metodlari bo'yicha materiallar tayyorlash.
5. Fonetika va fonologiyani o'qitishni loyihalashtirish.
6. Ta'lim bosqichlarida leksikologiyani o'qitishni loyihalashtirish.
7. Ta'lim bosqichlarida frazeologiyani o'qitishni loyihalashtirish.
8. Ta'lim bosqichlarida morfemikani o'qitishni loyihalashtirish.
9. Ta'lim bosqichlarida so'z yasashini o'qitishni loyihalashtirish.
10. Ta'lim bosqichlarida morfologiyani o'qitishni loyihalashtirish.
11. Ta'lim bosqichlarida so'z birikmasi sintaksisini o'qitishni loyihalashtirish.

12. Ta'lim bosqichlarida sodda gap sintaksisini o'qitishni loyihalashtirish.
13. Ta'lim bosqichlarida qo'shma gap sintaksisini o'qitishni loyihalashtirish.
14. Ona tilidan nazorat shakllarini tashkil etish.
15. Test texnologiyalari bo'yicha materiallar tayyorlash.

Fan bo'yicha kurs ishi. Kurs ishi fan mavzulariga taalluqli masalalar yuzasidan talabarga yakka tartibda tegishli topshiriq shaklida beriladi. "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" fanidan ma'ruza mashg'ulotlarida egallangan nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, talabalarni ilmiy-nazariy qarashlar asosida umumlashma xulosalar chiqara olishga o'rgatish, ularning ijodiy tafakkurini o'stirish, ilmiy izlanishlar olib borish ko'nikmasini shakllantirish, fikrni izchil va ifodali bayon eta olishga o'rgatish fan bo'yicha tashkil etiladigan kurs ishlarining bosh maqsadi hisoblanadi.

Mazkur fan yuzasidan yoziladigan kurs ishi talabalarni ilmiy-ijodiy ishga yo'naltiruvchi amaliy faoliyat turi sifatida muhim ahamiyatga ega. Talaba kurs ishini yozish asosida keyinchalik yirikroq tadqiqot ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko'radi. Jumladan, fan bo'yicha tashkil etiladigan kurs ishlari talabalarni ta'limning yuqori bosqichida bitiruv matakaviy ishini yozishga tayyorlab boradi.

Kurs ishi uchun taxminiy mavzulari:

1. O'zbek tili darslarida o'quvchilar so'z boyligini oshirish usullari.
2. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda davlat tilida ish yuritishga oid hujjatlar bilan ishlash usullari.
3. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy fikrlashini o'stirishda yashovchi qo'shimchalarning o'rni.
4. Kasb-hunar kollejlarda (sohalar bo'yicha) yozma nutqni o'stirish usullari.
5. 6-sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirishda nazorat ihtarining ahamiyati.
6. 7-sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirishda muammoli ta'limdan foydalanish.
7. 8-sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash salohiyatini o'stirishda kichik guruhlarda ishlashni tashkil qilish.
8. 9-sinf o'quvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishda insho va uning ahamiyati.
9. Akademik litsey adabiyot darslarida og'zaki va yozma nutqni o'stirish usullari.
10. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirishda o'quv topshiriqlarining ahamiyati.

VI. Malakaviy amaliyot

Pedagogik amaliyot:

Umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'tkaziladi va unda talabalar oliy ta'lim muassasasida olgan nazariy bilimlarini hayotga tatbiq etish ko'nikmalarini hosil qiladilar.

Talabalar ta'lim muassasasida malakali o'qituvchilarining 20-25 ta darsiga (passiv amaliyot) qatnashgan holda darsni tashkil etish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak.

Talabalar ta'lim muassasasida pedagog rahbar nazorati ostida 8 ta sinov darsini amalda mavjud bo'lgan dasturga binoan ma'ruza va amaliy mashg'ulot materiallari asosida mavzu bo'yicha dars (aktiv amaliyot) olib borishi lozim. Amaliyot rahbari nazorati ostida o'quvchilar orasida 2-3 ta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlarni ishlab chiqish va o'tkazish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak.

Ta'lim muassasasi o'quv hujjatlari bilan tanishib chiqishi lozim.

VII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar:

1. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.
2. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: "Fan va texnologiyalar", 2012. 379 bet.
3. Akademik litseylarning aniq fanlar yo'nalishidagi tarmoq ta'lim standarti va chuqurlashtirilgan fanlar o'quv dasturlari... Ona tili va adabiyoti /Mualliflar: Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Qosimova N., Yusupova Sh.. – T.: O'qituvchi, 2005.
4. Jim Burke. The English Teacher's Companion. Heinemann; 4 edition (November 1, 2012). 392p.
5. Doug Lemov. Teach Like a Champion. Jossey-Bass; 1 edition (April 6, 2010) 332p.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. -Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017 yil 7 fevraldagi farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarori. – "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil, 21-aprel.
5. Mahmudov N. va b. "Ona tili" darsligi 5-sinf uchun, – T.: Ma'naviyat, 2014.

6. Mahmudov N. va b. "Ona tili" darsligi 6-sinf uchun, – T.: Ma'naviyat, 2011.
7. Mahmudov N. va b. "Ona tili" darsligi 7-sinf uchun, – T.: Sharq, 2011.
8. Qodirov M. va b. "Ona tili" darsligi 8-sinf uchun, – T.: Sharq, 2012.
9. Mahmudov N. va b. "Ona tili" darsligi 9-sinf uchun, – T.: Sharq, 2011.
10. G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limining mazmuni. – T.: O'qituvchi, 1995.
11. Ne'matov O., Bozorov O. Til va nutq. – T.: O'qituvchi, 1993.
12. G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. – T.: O'qituvchi, 1992.

Elektron ta'lim resurslari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.ziyonet.uz
4. www.nutq.intal.Uz